1. Siz hozir nima qilyapsiz? – Biz (now) \_\_\_\_\_ gazeta (to read) \_\_\_\_\_.
2. Temur va Sobir nima (to do) \_\_\_\_\_? – Ular shahmat (play) \_\_\_\_\_.
3. Bolalar qayerga (to go) \_\_\_\_\_? – Ular maktabga (to go) \_\_\_\_\_.
4. Hozir u kitob (to read) \_\_\_\_\_? – Yo'q, u hozir musiqa (to listen) \_\_\_\_\_.
5. Ertalab Aziz avval (take a shower) \_\_\_\_\_, so'ng (have breakfast) \_\_\_\_\_.
6. (Lunch) \_\_\_\_\_ soat nechada (to have) \_\_\_\_\_?
7. Otang kechqurunlari nima (to do) \_\_\_\_\_? – Otam kechqurunlari (watch TV) \_\_\_\_\_.
8. Film qachon (**to start**) \_\_\_\_\_? – (At six) \_\_\_\_\_.

**9 - Mashq.** Read, identify words of action, adverbial modifiers of time and place.

MENING ISH KUNIM

Mening ismim Anvar. Men har kuni soat 6:30 da turaman, yuvinaman, kiyinaman va 10 ta kam 7 da nonushta qilaman. Soat 8 da ishga kelaman. Mening ish kunim soat 8 dan 5 gacha bo'ladi. Soat 1 da yarim soat tushlik qilaman. Soat 5 da ish vaqtim tugaydi.

Ishdan keyin soat 5:30 da dushanba va payshanba kunlari men o'zbek tili bilan shug'ullanaman. O'zbek tili darsimiz soat 7 da tugaydi. Har chorshanba kunlari men cho'milishga basseynga boraman. U yerda men bir yarim soat bo'laman. Har juma kunlari men yoga bilan shug'ullanaman.

Odatda men 7:30 da ovqatlanaman, o'zbek tili darsimni qilaman yoki kitob o'qiyman, musiqa eshitaman, televizor ko'raman. Men, ayniqsa, "Axborot" va "O'yla, izla, top" teleko'rsatuvlarini yaxshi ko'raman.

Soat 10:30 dan 11 gacha men dush qabul qilaman, **ozgina** gazeta yoki kitob o'qiyman va uxlashga yotaman.

**10 - Mashq.** Using the above text as a model discuss and write your daily activities during the weekend. Use the following questions to support your discussion.

1. Siz kim bo'lib ishlaysiz?
2. Qaysi kunlari dam olasiz?
3. Ertalab va kunduzi nima qilasiz?
4. O'rtoqlaringiz bilan uchrashasizmi?
5. Kechqurun qayerga borasiz?
6. U yerda qancha vaqt bo'lasiz?
7. Qachon kitob, gazeta va jurnal o'qiysiz yoki televizor ko'rasiz?
8. Soat nechada uxlaysiz?

## 2.2. Asking about the date of the action

Do'stingiz <b>QACHON</b> keldi?	<b>yanvar</b> - January <b>fevral</b> - February <b>mart</b> - March <b>aprel</b> - April <b>may</b> - May <b>iyun</b> - June <b>iyul</b> - July <b>avgust</b> - August <b>sentabr</b> - September <b>oktabr</b> - October <b>noyabr</b> - November <b>dekabr</b> - December  <b>bu yil</b> – this year	<b>+ DA</b>
---------------------------------	--	-------------



	<b>bu oy</b> – this month	
--	---------------------------	--

- Odatda (usually), siz qaysi oyda dam olasiz?
- Iyul – avgustda.
- Bu yil-chi?
- Bu yil men sentabrda dam olaman.
  
- O'zbekistonda qanday katta bayramlarni bilasiz?
- Mustaqillik kuni, Navro'z, Yangi yil, Qurbon bayrami va boshqalar.
- O'zbekiston Respublikasi Mustaqillik kuni qachon?
- 1-sentabrda.
- Navro'z bayrami qachon bo'ladi?
- 21-martda.

**11 - Mashq.** Ask your partner about the dates of national American and Uzbek holidays.

For example:

- Rojdestvo (Christmas) bayrami qachon bo'ladi?
- 25-dekabrda

**2.3. Expressing a desire for an action/ Bajarilishni maqsad qilingan harakat .**

It is formed by adding to the verb stem the suffix **-MOQCHI**, plus the personal suffixes. It is equivalent to English – want to do, would like to do or intention to do something.

<b>Men</b> <b>Sen</b> <b>U</b> <b>Biz</b> <b>Siz</b> <b>Ular</b>	<b>kel + MOQCHI</b>	<b>man</b> <b>san</b> <b>-</b> <b>miz</b> <b>siz</b> <b>lar</b>
<b>I (he, she, it, we, you, they)</b>	<b>want to come</b>	

- Zokir aka, bugun nima qilmoqchisiz? (Zokir-aka, what are you going to do today?)
- Ishdan keyin basseyniga bormoqchiman. (I want to go to the pool after work)
- Yakshanba kuni-chi? (What about Sunday)
- Bobomnikiga bormoqchiman. (I am going to grandpa)
- Ularnikida nima qilmoqchisiz? (What do you want to do there)
- Bobomga bog'da yordam bermoqchiman. (I want to help grandpa with the garden)

**2.3.1. The negative is formed using the verb stem plus the suffix *-MOQCHI*, followed by the negative *emas*, and the personal suffix. For example:**

<i>kelmoqchi emasman</i>	I don't intend to come
<i>kelmoqchi emassan</i>	You don't intend to come
<i>kelmoqchi emas</i>	He/she/it doesn't intend to come
<i>kelmoqchi emasmiz</i>	We don't intend to come
<i>kelmoqchi emassiz</i>	You don't intend to come
<i>kelmoqchi emaslar / emas</i>	They don't intend to come

**12 - Mashq.** Fill in the blanks:

- Bu avtobus qayerga boradi?
- Chilonzorga. Siz qayerga bor\_\_\_\_\_?
- Men 22-kvartalga bor\_\_\_\_\_.
- Siz 2-bekatdan keyin tushasiz.
- Rahmat.
- Xayr.
  
- Dam olish kuni nima qil\_\_\_\_\_?
- Men futbol o'yna\_\_\_\_\_.
- Sen-chi? Sen nima qil\_\_\_\_\_?
- Siz bilan futbol o'yna\_\_\_\_\_, maylimi?

- Yo'q, ukajon. Sen hali kichkinasan.

**3. YAXSHI KO'RMOQ** – to like, to be fond of vs **YOQTIRMOQ** – to like, to enjoy, to find agreeable, to approve of .

Men rok musiqasini <i>YAXSHI KO'RAMAN</i>	Men rok musiqasini <i>YOMON KO'RAMAN</i>
Men rok musiqasini <i>YOQTIRAMAN</i>	MEN rok musiqasini <i>YOQTIRMAYMAN</i>

**13 - Mashq.** Conjugate the verbs *yaxshi ko'rmoq* and *yoqtirmoq*

Kim?	Nimani?	
Men	Musiqani	
Sen		
U	Kinoni	
Biz		
Siz	Futbolni	
Ular	Tennis o'ynashni	

**14 – Mashq.** Answer the following questions. First one is done for you.

1. Siz sportni yaxshi ko'rasizmi? – Ha, juda ham yaxshi ko'raman.
2. Sening ukang komputer o'yinlarini yaxshi ko'radimi?
3. Sen o'qishni yaxshi ko'rasanmi? \_\_\_\_\_
4. Ular tennis o'ynashni yoqtiradilarmi? \_\_\_\_\_
5. Onang mumtoz musiqani yoqtiradilarmi? \_\_\_\_\_

**PRACTICE:**

**15 - Mashq.** Read and explain the proverb.

1. Avval o'yla, keyin so'yla.
2. Yaxshi niyat - yarim davlat.

**16 - Mashq.**

1. Men uning gapiga avval (tushunmoq) \_\_\_\_\_, keyin savol so'radim.
2. Sen avval mashqni (o'qimoq) \_\_\_\_\_, keyin (yozmoq) \_\_\_\_\_
3. Bugun men avval idora \_\_\_\_\_ (bormoq) \_\_\_\_\_, keyin bozor \_\_\_\_\_  
(bormoq) \_\_\_\_\_
4. Ertaga biz avval test (yozmoq) \_\_\_\_\_, undan keyin dekanat \_\_\_\_\_  
(bormoq).
5. Siz avval (ishlamoq) \_\_\_\_\_, keyin musiqa (tinglamoq) \_\_\_\_\_.

**17 - Mashq.** Translate, use adverbial modifiers of time and place.

1. Karim and John live in a dormitory now.  
\_\_\_\_\_
2. I immediately closed the windows.  
\_\_\_\_\_
3. Where do you work now? - I work at the bank.  
\_\_\_\_\_
4. Tomorrow we will go to the movies.  
\_\_\_\_\_
5. I open my store every day at 8 o'clock in the morning.  
\_\_\_\_\_
6. Tomorrow I will be home.  
\_\_\_\_\_
7. Library does not work on Mondays.  
\_\_\_\_\_

8. Uzbek dictionary is found nowhere.

\_\_\_\_\_

9. Every day first, I go to work then my children go to school.

\_\_\_\_\_

10. Today, there are no children outside.

\_\_\_\_\_

**18 - Mashq.** Give answers to the questions:

1. Siz ertalab soat nechada uyg'onasiz? \_\_\_\_\_

2. Nonushtadan oldin nima qilasiz? \_\_\_\_\_

3. Qachon darsga ketasiz? \_\_\_\_\_

4. Siz qayerda o'qiysiz? \_\_\_\_\_

5. O'zbek tili darsi nechadan nechagacha bo'ladi? \_\_\_\_\_

6. Tushlik qachon qilasiz? \_\_\_\_\_

7. O'rtog'ingiz ishlaydimi yoki o'qiymidi? \_\_\_\_\_

8. Bugun majlisga borasizmi? \_\_\_\_\_

9. Kechqurun siz nima qilasiz? \_\_\_\_\_

10. Sport zaliga har kuni borasizmi? \_\_\_\_\_

11. Otang hozir qayerda? Ichkaridami yoki tashqaridami? \_\_\_\_\_

**19- Mashq.** Make sentences from the following words:

1. Uxlamoq \_\_\_\_\_

2. Xat yozmoq \_\_\_\_\_

3. **Soch taramoq** \_\_\_\_\_

4. Teatrga bormoq \_\_\_\_\_
5. Komputerde ishlamoq \_\_\_\_\_
6. Mehmonga bormoq \_\_\_\_\_
7. Ovqatlanmoq \_\_\_\_\_
8. Telefonda qapirmoq \_\_\_\_\_
9. Piyoda yurmoq \_\_\_\_\_

**20 - Mashq.** Answer the following questions about your class:

1. Sizning guruhingizda kimlar o'qiydi? \_\_\_\_\_
2. Ularning ismi nima? \_\_\_\_\_
3. O'qituvchingiz kim? \_\_\_\_\_
4. O'zbek tili darsingiz soat nechada boshlanadi? \_\_\_\_\_
5. Darsingiz soat nechada tugaydi? \_\_\_\_\_
6. O'zbek tili darsi qaysi kunlarda bo'ladi? \_\_\_\_\_
7. Darsda sizlar nima qilasizlar? \_\_\_\_\_

**21 - Mashq.** Put the following verbs in the form that expresses the intention or desire of an action. Give the negative form.

e.g. Bormoq – bormoqchiman – bormoqchi emasman.

1. Yozmoq \_\_\_\_\_
2. O'qimoq \_\_\_\_\_
3. Ketmoq \_\_\_\_\_
4. Boshlamoq \_\_\_\_\_

5. Televizor ko'rmoq \_\_\_\_\_
6. Dam olmoq \_\_\_\_\_
7. Ishlamoq \_\_\_\_\_

**22 - Mashq.** Answer to the questions in this dialogue.

- Nigora, sen bugun qayera bormoqchisan?
- \_\_\_\_\_
- Kutubxonada nima qilmoqchisan?
- \_\_\_\_\_
- Qanday yangi kitob olmoqchisan?
- \_\_\_\_\_
- Men ham sen bilan kutubxonaga bormoqchiman. Maylimi?
- \_\_\_\_\_
- Sen kutubxonaga qachon borasan?
- \_\_\_\_\_

**23 - Mashq.** Guess what are the questions to the following answers in the dialogue.

- \_\_\_\_\_ ?
- Uyda ish qilmoqchiman.
- \_\_\_\_\_ ?
- Dadamga yordam bermoqchiman. Dadam mashinani tuzatmoqchilar, men uni keyin yuvmoqchiman.
- \_\_\_\_\_ ?

- Biz mashinani sotmoqchimiz. Shuning uchun uni tuzatyapmiz.
- \_\_\_\_\_?
- Mayli, kel. Ertagacha!

**24 - Mashq.** Look at the example below and write what would you like to do when graduate.

Mening ismim Botir. Men institutda o'qiyman, quruvchi fakultetida. Men arxitektor bo'lmoqchiman. Men **chiroyli** imoratlar qurmoqchiman.

**25 - Mashq.** Turn the infinitive form of the verb into imperative. The first one is done for you.

Hozir **tong**. Turing, (kiyinmoq) \_\_\_\_\_, nonushta (qilmoq) \_\_\_\_\_, ishga yoki **o'qishga** (bormoq) \_\_\_\_\_. Kitob (o'qimoq) \_\_\_\_\_, daftarga (yozmoq) \_\_\_\_\_. Uyda dars (tayyorlamoq) \_\_\_\_\_.

**26 - Mashq.** Read, answer the questions.

1. Sen futbol o'ynashni yaxshi ko'rasanmi yoki tennis o'ynashnimi?  
\_\_\_\_\_
2. Sizning oilangiz kechqurunlari televizor ko'rishni yaxshi ko'radimi yoki radio tinglashnimi? \_\_\_\_\_
3. Sportning qaysi turini yaxshi ko'rasiz? \_\_\_\_\_
4. Qanday musiqani yaxshi ko'rasiz? \_\_\_\_\_
5. Siz nima qilishni yomon ko'rasiz? \_\_\_\_\_
6. Sen operani yomon ko'rasanmi? \_\_\_\_\_



7. Qanday kitoblarni o'qishni yomon ko'rasiz? \_\_\_\_\_

**VOCABULARY:**

April - april

Avgust - august

avval - before

Bog' – garden

Bu oy – this month

Bu yil – this year

Chiqing – get out, exit

Chiroyli – pretty, beautiful

Dam olmoq – to have a rest

Darsga bormoq – to go to class

Dekabr - december

Dush qabul qilmoq – to have a shower

Erta – morning

Fevral - february

Gaplashmoq – to speak, to have a conversation

hammasi – all of them

har kuni - everyday

Ishlamoq – to work

Iyul - july

Iyun - june

Kech – evening

Kechki taom qilmoq – to have dinner

keyin - after

ko'rsatuv - program

Kunduzi – day time

Majlis – meeting

Mart - march

May - may

Menimcha – to my mind, in my opinion

Mumtoz – classic

Nonushta – breakfast

Noyabr - november

O'qish – study

O'ylamoq – to think

O'ynamoq – to play

ochilmoq – to open

Oktabr - october

Ovqatlanmoq – to eat

Ozgina – little bit

Qachon? – when?

Sentabr - september

Shug'ullanmoq – to be busy (occupied) with (at)

So'ylamoq – to speak

Soch taramoq – to comb one's hair

Tanaffusga chiqmoq – to have a break

Tong – morning

Tugamoq – to finish, to end

Turmoq – to get up

Tushlik qilmoq – to have a lunch

Uchrashmoq – to meet

Uxlamoq – to sleep

Uyg'onmoq – wake up

Yanvar - january

Yaxshi ko'rmoq – to like

Yoqtirmoq – to like, to enjoy

Yordam bermoq – to help, to assist

yotoqxonona – dormitory

## LESSON 9 – TO’QQIZINCHI DARS. OB-HAVO

### Content: (MUNDARIJA)

1. Ob-havo va fasllar. Types of weather
2. Adjectives with suffix *-li*
3. Yil fasllari. Seasons of the year
4. Cardinal Directions
5. Colors
6. Past Tense
  - 6.1. The use of *bo’lmoq* with past tense
  - 6.2. Negation with suffix *-ma*


## 1. OB-HAVO VA FASLLAR



Kuz



Qish



Bahor




Yoz

Nima? (what)	Qachon? (when)
Qish	Qishda
Bahor	Bahorda
Yoz	Yozda
Kuz	Kuzda



Yomg'ir



Shamol



Quyosh



Bulut



Qor

2. **Adjectives with that are formed with suffix –li.** In Uzbek in order to form a descriptive adjective one can add suffix “-li” to the noun. For example:  
*yomg'ir* (rain) – *yomg'irli* (rainy).

Often, verbs like *yog'moq* and *esmoq* are used with nouns to describe the weather patterns. For example:

*yomg'ir* – rain, *yog'moq* – to fall  
*yomg'ir yog'yapti* – it's raining  
or  
*shamol* – wind, *esmoq* – to blow  
*shamol esadi* – it's windy

For example: O'zbekistonda odatda qachon *qor yog'adi* (snows)? – Dekabrda  
Qaysi oylarda *yomg'ir ko'p yog'adi*? – Martda va aprelda.

The verb *bo'lmoq* is used to describe weather patterns that are habitual, usual. For example:  
*O'zbekistonda qish sovuq bo'ladi, yomg'ir bilan qor yog'adi.* – Winter season in Uzbekistan is cold, rainy and snowy.

**1- Mashq.** Construct descriptive adjectives by adding suffix *-li*.

1. Bulut - \_\_\_\_\_
2. Quyosh - \_\_\_\_\_
3. Shamol - \_\_\_\_\_
4. Qor - \_\_\_\_\_

**2- Mashq.** Match words from right column with the words in left column.

bulutli	qish
yomg'irli	bog'
quyoshli	shabada
chiroyli	kun
yoqimli	gullar
qorli	kuz

**2.1.** In Uzbek, adjectives come before nouns. For example: *sovuq kun* – cold day

<p>Bugun ob-havo qanday? What is the weather like today?</p>	<p><i>Ochiq</i> - sunny <i>Bulutli</i> - cloudy <i>Sovuq</i> - cold <i>Iliq</i> - warm <i>Quruq</i> – dry, no rain <i>Issiq</i> - hot <i>Salqin</i> - cool</p>
--	--

**3- Mashq.** A) Discuss what is the weather like today?

B) Ask your partner about the weather using suffix **-mi**. For example:

*Bugun sovuqmi? – Ha, bugun sovuq or Yo‘q, bugun sovuq emas.*

### 3. YIL FASLLARI – Seasons of the year

Har bir fasl o‘ziga xos husnga (charm) ega. O‘zbekistonda qishda havo sovuq bo‘ladi, yomg‘ir va qor yog‘adi, sovuq shamol esadi. Harorat (temperature) selsiy shkalasida (skale) minus 12, minus 15 darajagacha tushadi. Fevral sovuq, martda ham hali salqin, harorat past bo‘ladi va ba‘zan qor yog‘adi.

Bahorda kunlar isiydi, daraxtlar gullay boshlaydi. Harorat kunduzi 15-20 daraja issiq bo‘ladi. May oyida harorat 25 darajagacha ko‘tariladi (increase).

Yozda kun juda issiq bo‘ladi. Harorat 39-43 darajagacha ko‘tariladi. Yozda ko‘p mevalar pishadi (to ripe), bolalar cho‘miladi (to swim).


Kuzda kunduzi hali iliq bo‘ladi, lekin (but) kechalari salqin bo‘ladi. Noyabrda esa tez-tez yomg‘ir yog‘adi. Daraxtlarning barglari sarg‘ayadi va to‘kiladi.

Savollarga javob bering:

1. Qaysi faslda qor yog‘adi?
2. Qaysi oylar qish (bahor, yoz, kuz) oylari bo‘ladi?
3. Qachon odatda ko‘p yomg‘ir yog‘adi?

4. Bahorda (yozda, kuzda, qishda) havo qanday bo'ladi?
5. Hozir qaysi fasl, havo qanday va harorat necha daraja?

**4. Cardinal Directions:**



Shimol – North	Sharq – East
G'arb – West	Janub – South

**4 – Mashq.** Translate the following cardinal directions. For example: Northwest - Shimoli G'arb

1. Southeast – \_\_\_\_\_
2. Southwest - \_\_\_\_\_
3. Northwest - \_\_\_\_\_
4. Northeast - \_\_\_\_\_

**5 - Mashq.** Name the states in the different parts of the country. For example:

*Shimoliy Karolina AQShning janubi sharqda.* – North Carolina is in the Southeast of United States.

**6 - Mashq.** O'qing, savollarga javob bering.

Respublika Hidrometeorologiya markazining xabar berishicha, 14-mart kuni Toshkentda havo o'zgarib turadi, yog'ingarchilik bo'lmaydi. Sharqdan sekundiga 5-10 metr tezlikda shamol esadi. Kechasi 6-8, kunduzi 21-23 daraja iliq bo'ladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida havo o'zgarib turadi, yog'ingarchilik bo'lmaydi. Kechasi 5-10, kunduzi 15-20 daraja iliq bo'ladi.



Buxoro va Navoiy viloyatlarida havo o'zgarib turadi, yog'ingarchilik bo'lmaydi. Sharqdan sekundiga 7-12 metr tezlikda shamol esadi, sekundiga 15-20 metrga yetadi. Kechasi 5-10, kunduzi 18-23 daraja iliq bo'ladi.

Surxondaryo viloyatida havo o'zgarib turadi, yog'ingarchilik bo'lmaydi. Sharqdan sekundiga 7-12 metr tezlikda shamol esadi. Kechasi 7-12, kunduzi 20-25 daraja iliq bo'ladi.

Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida havo o'zgarib turadi, yog'ingarchilik bo'lmaydi. Sharqdan sekundiga 5-10 metr tezlikda shamol esadi. Kechasi 3-8, kunduzi 15-20 daraja iliq bo'ladi.

Respublikamizning tog'li tumanlarida havo o'zgarib turadi, yog'ingarchilik bo'lmaydi. Qor ko'chishi xavfi bor. Sharqdan sekundiga 7-12 metr tezlikda shamol esadi, sekundiga 15-20 metrga yetadi. Kechasi 0-5, kunduzi 7-12 daraja iliq bo'ladi.



(adopted from <http://naesmi.uz/uz/>,  
Uzbekistan National Association of Electronic Media)

Savollar:

1. Qaysi viloyatlar haqida ob-havo ma'lumoti berilgan?
2. Qaysi kun uchun ob-havo berilgan?
3. Ob-havo qanday?
4. Qayerda qor ko'chishi xavfi bor?
5. Qayerdan shamol esadi?
6. Ob-havo haqida kim (or qaysi bo'lim) xabar beradi?

**7 - Mashq.** Write weather forecast in Uzbek for the country or region of your choice.

## 5. List of Colors

	
<p>Ranglar</p>	<p>Colors</p>
<p style="text-align: center;"> <i>Qizil</i>  <i>Ko'k</i>  <i>Yashil</i>  <i>Sariq</i>  <i>Oq (oppoq)</i>  <i>Jigarrang</i>  <i>Oltin</i> </p>	<p style="text-align: center;"> Red  Blue, green  Green  Yellow  White  Brown  Gold </p>

For example: *Ko'k osmon* – blue sky  
*Oq paxta* – white cotton  
*Ko'k archa* – green fern tree  
*Qizil olcha* – red cherry

**8 - Mashq.** Atrofigizga qarang va predmetlarning rangini ayting. Name the color of things around you. Note the difference between *qanday* and *qanaqa*

Masalan: Bu qanday rang ruchka? Bu qizil rang ruchka. (what kind of color has this pen?- it's the red color pen)

Bu ruchkaning rangi nima (qanaqa)? Ruchkaning rangi qizil. (what is the color of the pen? – The pen's color is red.)

<u>oq</u>	<u>qora</u>	<u>qizil</u>	<u>olovrang</u>	<u>sariq</u>	<u>havorang</u>	<u>ko'k</u>	<u>pushti rang</u>
							
<u>kumush</u>	<u>kul</u>	<u>jigarrang</u>	<u>binafsha rang</u>	<u>zaytun</u>	<u>yashil</u>	<u>qirmizi</u>	<u>siyohrang</u>

### 5.1. Qualities of Colors:

The suffix **-roq/mtir** is used with colors to produce adjectives of color quality:

**qoraroq/qoramtir** - *blackish, darkish, dusky*, **sariqroq** - *yellowish, fallow*, **ko'kimtir** - *bluish*

### 9 - Mashq. Tarjima qiling:

1. Qoramtir bulutlar osmonda paydo bo'ldi.
2. O'zbekistonning birinchi "Qizil kitob"i 1983-yilda nashrdan chiqdi.
3. Ahmad – oltin odam!
4. Chap tomonda — tog' etaklari, o'ng tomonda — yashil paxtazor.
5. Oltin kuz - yilning hamma narsa pishgan, to'kin-sochin payti.
6. Jigarrang barglar yerga to'kildi.

### 6. Past Tense. Aniq O'tgan Zamon Fe'li

The definite past expresses an event or action completed in the past and the event being viewed as a single whole. It occurred at a specific time and inside the period of time of current relevance to the speaker, usually the recent past. Very often, the speaker is an eyewitness of the event, and is sure about its actual occurrence. The definite past tense is formed by adding to the verb stem the suffix **-DI**, plus the possessive type of personal suffixes:

For example: *Biz kecha darsda o'qidik, yozdik va o'zbek tilida suhbatlashdik.*

*Bugun kunduzi Karim majlisda bo'ldi.*

Men V(stem) + dim	Biz V(stem) + dik
Sen V(stem) + ding	Siz V(stem) + dingiz
U V(stem) + di	Ular V(stem) + di(lar)

- **Kecha** siz nima qildingiz? What did you do yesterday?
- **Ishladim.** I worked
- **Bugun ertalab** nima qildingiz? What did you do this morning?
- **Gazeta o'qidim.** I read newspaper

**10 - Mashq.** Read, study and complete the table of verbs in past tense.

yoymoq	to write	o'qimoq	boshlamok
Yozdim	I wrote	O'qidim	Boshladim
Yozding	You wrote	O'qiding	Boshlading
Yozdi	He/she/it wrote	O'qidi	Boshladi
Yozdik	We wrote	O'qidik	Boshladik
Yozdingiz	You wrote	O'qidingiz	Boshladingiz
Yozdi(lar)	They wrote	O'qidi(lar)	Boshladi(lar)
ko'tarilmoq	kelmoq	Qilmoq	Tushmoq

**11 - Mashq.** Gap tuzing:

- a) Siz bugun ertalab, **kunduzi, kechqurun** nima qildingiz?
- b) Do'stlaringiz kecha ertalab, kunduzi, kechqurun nima qildilar?

**12 - Mashq.** Read, translate and answer the questions. Suhbatni o'qing. Tarjima qiling.  
Savollarga javob bering:

**A.** - Sen soat nechada kelding?

- Men soat yettida keldim. Sen-chi?
- Men soat yetti yarimda keldim.
- Sen nima qilding?
- Kutubxonada dars qildim.

**B.** – Kecha kunduzi qayerda eding?

- Universitetda edim.
- Kecha kechqurun qayerda eding?
- Sport zalida edim.

**C.** – Ular bugun kimnikida edilar?

- Biznikida.

**13 – Mashq.** Savollarga javob bering. Read, answer the questions:

1. Kecha kechqurun qayerda eding? \_\_\_\_\_
2. Bugun ertalab qayerda eding? \_\_\_\_\_
3. O'rtog'ing kecha qayerda edi? \_\_\_\_\_
4. Kecha kimnikida eding? \_\_\_\_\_

**6.1.** The use of **bo'lmoq** in its indefinite past form as a predicate (for names, adjectives, bor, yo'q, kerak, mumkin, etc.) indicates that a change of state has occurred, which may or may not be still relevant at present time. Note: the difference with **edi** is that the latter implies a view where the state is seen as being continuous. For example:

*Kech bo'ldi. Biz boraylik.* It's late, we are going.

Qishda sovuq bo'ldimi? Did it become / was it cold in summer?



- Soat necha bo'ldi?

- To'rt bo'ldi.

Kim?	Qayerda?	Necha soat?	Nima qildi?
Men	Ishda	sakkiz soat	bo'ldim
Sen			bo'lding
U			bo'ldi
Biz			bo'ldik
Siz			bo'ldingiz
Ular			bo'ldilar

Siz kecha necha soat ishladingiz? – Men kecha ikki soat ishladim.

Hozir soat necha bo'ldi? – Besh yarim.

Kechirasiz, yig'ilish soat nechada bo'ldi? – 15 ta kam oltida.

**14 - Mashq. A)** Do'stlaringizdan vaqtni so'rang. Ask about time from your friends.

**B)** Soat nechada qayerda bo'ldingiz? What time where have you been?

<b>QANCHA VAQT?</b> How long?	<b>NECHA SOAT?</b> What time?
<i>Kun bo'yi</i> (all day)	<i>ikki soat</i>
<i>Hafta bo'yi</i> (all week)	<i>o'n minut</i>
<i>Oy bo'yi</i> (entire month)	<i>besh daqiqa</i>
<i>Yil bo'yi</i> (year long)	<i>yarim soat</i>
<i>Umr bo'yi</i> (life long)	<i>yetti soat</i>

For example:

Siz Londonda qancha vaqt bo'ldingiz? – Men u yerda bir hafta bo'ldim.

Har kuni dissertatsiyada qancha vaqt ishlaysiz? – Besh-olti soat.

U qancha vaqt kutubxonada bo'ldi? – Kun bo'yi bo'ldi.

**15 - Mashq.** Savollarga javob bering:

- a) Siz qancha vaqt ishlaysiz, dam olasiz?
- b) Do'stlaringiz qancha vaqt ishlaydilar, dam oladi?

**16 - Mashq.** O'qing, quyidagi so'zlar bilan suhbat tuzing.

*Majlis, yig'ilish, trenirovka, seminar, spektakl*

- Siz tabiatshunoslik darsida bo'ldingizmi?
- Ha, bo'ldim.
- Dars nechada boshlandi va soat nechada tamom bo'ldi?
- Soat sakkizda boshlandi va soat o'nda tamom bo'ldi.
- Dars qanday o'tdi?
- Juda yaxshi o'tdi.

**6.2. O'tgan zamon (davomi). Negation in Past Tense**

The negative is formed by adding to the verb stem the suffix **-MA**, plus the suffix **-DI** and then the personal suffix.

Men V(stem) + **ma** +dim

Biz V(stem) + **ma**+ dik

Sen V(stem) + **ma**+ ding

Siz V(stem) + **ma** + dingiz

U V(stem) + **ma**+ di

Ular V(stem) + **ma**+ di(lar)

bormoq	Tugamoq	Pishmoq	Ochilmoq
Bormadim			
Bormading			
Bormadi			
Bormadik			
Bormadingiz			
Bormadilar			

For example: *Men bugun kutubxonaga bormadim.*

*Men kechqurun xat yozmadim.*

- Lola keldimi?
- Yo'q, kelmadi.
- Qachon keladi?
- Soat o'nda keladi.
- Anvar va Sobir kelmadimi?
- Yo'q, ular kelmadi.
- Ular keladimi, kelmaydimi?
- Yo'q, ular bugun kelmaydi. Ular bugun dalada ishlaydi.

**17 - Mashq.** *Issiq, sovuq, iliq* so'zlari bilan hozirgi va o'tgan zamonlarda gap tuzing. **A)** Make up sentences in Present and Past tenses. **B)** Turn them into negative sentences.

For example: a) Bugun havo issiq bo'ldi. Bugun havo issiq bo'ladi.

b) Bugun havo issiq bo'lmadi. Bugun havo issiq bo'lmaydi.

1. Sovuq \_\_\_\_\_



2. Iliq \_\_\_\_\_

**18 - Mashq.** *Qor, yomg'ir* so'zlari bilan hozirgi va o'tgan zamonda gap tuzing. A) Make up sentences in Present and Past tenses. B) Turn them into negative sentences.

1. Qor \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

2. Yomg'ir \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

**PRACTICE:**

**19 - Mashq.** Quyidagi savollarga qanday javoblar bo'lishi mumkin?

1. Hozir qanday fasl? - \_\_\_\_\_

2. Bugun ob-havo qanday? - \_\_\_\_\_

3. Osmon qanday? - \_\_\_\_\_

4. Bugun taxminan necha daraja issiq (iliq, sovuq)? - \_\_\_\_\_

5. Ertaga havo qanday bo'ladi? - \_\_\_\_\_

6. Shahringizda qishda havo qanday bo'ladi? - \_\_\_\_\_

7. Shahringizda yozda havo qanday bo'ladi? - \_\_\_\_\_

**20 - Mashq.** Quyidagi javoblar qaysi savollarga berilgan bo'lishi mumkin?

1. \_\_\_\_\_? – Ertaga yomg'ir yog'adi.

2. \_\_\_\_\_? Avgustda havo ochiq va quyoshli.

3. \_\_\_\_\_? Harorat kechasi +5 darajaga tushadi.

4. \_\_\_\_\_? Kunduzi 22 daraja issiq bo'ladi.

5. \_\_\_\_\_? Aprelda havo iliq va yomg'irli bo'ladi.

6. \_\_\_\_\_? Yo'q, iyulda havo quruq va **serquyosh**.

**21 – Mashq.** Savollarni tarjima qiling va ularga javob bering.

1. Is it cold today?

\_\_\_\_\_

2. Is it hot and dry in your city in June?

\_\_\_\_\_

3. Is it hot and sunny in Tashkent in September?

\_\_\_\_\_

4. Is it warm in fall in your city?

\_\_\_\_\_

5. Is it raining in Uzbekistan in March?

\_\_\_\_\_

6. Is the wind cold in October?

\_\_\_\_\_

7. Is the weather cloudy tomorrow?

\_\_\_\_\_

8. When do the leaves get yellow and fall?

\_\_\_\_\_

**22 - Mashq.** Savollarga javob bering va o'zingiz savol to'zing.

1. Bu gulning rangi qanday? (nima?) \_\_\_\_\_

2. Paxtaning rangi qanday? \_\_\_\_\_

3. Osmonning rangi qanday? \_\_\_\_\_

4. Svetoforning chiroqlari qanday rangda? \_\_\_\_\_

5. \_\_\_\_\_? Kuzda barglar sarg'ayadi.

6. \_\_\_\_\_? Qalamning rangi qora.

7. \_\_\_\_\_? Uning rangi qizil.

8. \_\_\_\_\_

9. \_\_\_\_\_

10. \_\_\_\_\_

**23 - Mashq.** Savollarga javob bering. Gaplarni yozing.

1. Bugun ertalab, kechqurun, kunduzi kimnikida edingiz?

---

---

---

2. Do'stlaringiz bugun ertalab, kecha kunduzi qayerda edilar?

---

---

3. Do'stingiz kecha ertalab, bugun kunduzi, kecha kechqurun kimnikida edi?

---

---

---

**24 - Mashq.** Savollarga javob bering. Gaplarni yozing:

a) Do'stlaringiz qancha vaqt televizor ko'radilar, dars qiladilar?

---

---

b) Siz universitetda qancha vaqt bo'ldingiz?

---

c) Siz O'zbekistonda qancha vaqt bo'ldingiz?

---

d) Siz o'zbek tili bilan qancha vaqt shug'ullanyapsiz (involved in studies)?

---

e) Do'stingiz chet elda (abroad) qancha bo'ldi?

---

**25 - Mashq.** Savollarga javob bering. Hozirgi zamon davom fe'li bilan o'tgan zamon o'rtasidagi farqni ko'ring.

1. Film qachon boshlandi? \_\_\_\_\_

2. U qancha davom etdi? \_\_\_\_\_

3. Film qachon tugadi (ended)? \_\_\_\_\_

4. Siz bugun qancha vaqt ishladingiz? \_\_\_\_\_
5. Soat nechada uning ishi tamom bo'ladi? \_\_\_\_\_
6. Konsert soat nechada boshlanadi? \_\_\_\_\_

**25 - Mashq.** Gapni tugating. *Lekin, esa, yoki, va, ham* bog'lovchilaridan foydalaning. Finish the following sentences using conjunctions.

For example: Kecha osmon bulutli edi, bugun esa yomg'ir yog'adi

1. Kecha kechqurun u kitob o'qidi, bugun esa \_\_\_\_\_
2. Kunduzi men cho'milishga bordim, kechqurun \_\_\_\_\_
3. Kecha qor ko'p yog'di, bugun \_\_\_\_\_
4. Shu bahorda havo iliq bo'ldi, lekin \_\_\_\_\_
5. Ular ham o'qiydi, ham \_\_\_\_\_
6. Yozda mevalar pishadi, \_\_\_\_\_
7. Mening akam qish faslini yaxshi ko'radi, \_\_\_\_\_
8. Onam bozorga bugun bormadilar, \_\_\_\_\_

**26 - Mashq.** Tarjima qiling. Translate:

1. Is it a flower? What color is it? \_\_\_\_\_
2. Anvar, where is the black pen? \_\_\_\_\_
3. When will it rain? Look, the sky is cloudy.  
\_\_\_\_\_
4. It is still warm in September, but in October weather will get cooler.  
\_\_\_\_\_
5. What was the weather yesterday? - It was sunny and warm.  
\_\_\_\_\_
6. What a pleasant day! \_\_\_\_\_
7. What is the temperature today? –It is 22 degrees.  
\_\_\_\_\_
8. Is it cold in spring? –No it is warm and sunny.  
\_\_\_\_\_

9. It snowed yesterday. \_\_\_\_\_
10. Today the weather will change significantly. A cold wind will blow from the north-west and the temperature will drop to 12 degrees.
- \_\_\_\_\_

#### **VOCABULARY. YANGI SO'ZLAR**

Archa – Fir tree;

Bog' – Garden;

Bugun – Today;

Chiroyli – Beautiful;

Daraja – Degree;

Egalik qilmoq – To have;

Ham – Also, too;

Harorat – Temperature;

Husn – Beauty;

Iliq – Warm;

Issiq – Hot;

Kecha – Yesterday;

Kechqurun – In the evening;

Kunduzi – Day time;

Lekin – But;

Nashr – print;

O'ziga xos – Unique;

Olcha – Cherry;

Paxtazor – Cotton field;

Payt – Time, moment;

Pishmoq – To be ripe;

Qor – Snow;

Qor ko'chkisi – Avalanche;

Serquyosh – Sunny;

Sovuq – Cold;

Tugamoq – To end;

To'kin-sochin – Abundance;

Tog' etagi – Mountain foot

Yog'moq – To fall;

Yoki – Or;

Yomg'ir – Rain;

Yoqimli – Pleasant;


**LESSON 10 - O'NINCHI DARS. Meva/Sabzavot. Bozorda**

**Mundarija. Content:**

- 1. Fruits and Vegetables**
- 2. Verbal nouns with suffix –ish, -ib**
- 3. Asking the price. Narxi necha so'm?**
- 4. Present Perfect Tense**
- 5. Past Perfect Tense**

1. **Fruits and Vegetables** in Uzbek are written in singular and often translated into English in plural form.

- Bu nima?
- Bu bog'.
- Bog'da nimalar **pishdi**?



- Bog'da olma, **o'rik, shaftoli, olcha** va **gilos** pishdi.
- Bog'da uzum ham bormi?
- Yo'q, uzum – **uzumzorda**.
- Hovlingizda qanday **mevalar** bor?
- Hovlimizda gilos, nok, **behi** va **anor** bor.
- Uzum ham bormi?
- Ha, uzum ham bor.

1- **Mashq.** Complete the right column. Answer the question.

Siz qanday mevalarni <b>yaxshi ko'rasiz</b> ?	
---	--

For example: *Men **qovun** va **tarvuzni** yaxshi ko'raman.*

2-**Mashq. A)** Suhbatni o'qing, tarjima qiling:

– **Ko'chatlar** qaysi oylarda ekiladi?



- Ko‘chatlar kuzda, oktabr-noyabr oylarida, bahorda esa mart-aprel oylarida ekiladi
- Sen bu yil ko‘chat ekdingmi?
- Ha, albatta, ekdim.
- Nimalar ekding?
- Olma, o‘rik, shaftoli ekdim.
- Men esa anjir va gilos ekdim.
- Juda yaxshi.

**B) Sizning shtatingizda qanday mevalar ekiladi?**

**3 - Mashq.** Sabzavotlar. Read. Translate the dialogue

- Bular nima?
- Bular piyoz, kartoshka, pomidor, baqlajon.
- Bodring va karam qani?
- Mana bodring, mana karam.
- Qovun va tarvuz-chi?
- Mana bu qovun, ana u tarvuz.
- Bu nima?
- Bu ko‘kat, bular esa makkajo‘xori.



**2. Verbal nouns** are formed from the verb by adding suffix to the stem:

**2.1.** Construction with suffixes **-ish** or **-sh** is formed with the infinitive of the verb suffixed by the personal type of personal suffixes, followed by the nominal predicate. This form is often used with words like: *kerak*, *mumkin* and *uchun* and expresses necessity, possibility and permission. For example:

*Cekish mumkin emas.* No smoking.

*Manzura uchrashishni xohlamadi.* Manzura did not want to meet.

*Darsga tayyorlanishim kerak.* I need to study for (my) class.

*Men yordam berishim mumkin.* I can help.

**2.2. -ib** suffix is used to express an action which preceded another action. For example: *O'z ishimni tamom qilib, ko'chaga chiqdim.* Or it is used to form two actions happening at the same time. For example:

*Dilbar do'kondan pishloq sotib oldi.* Dilbar bought cheese from the store.

The construction Verb-**ib** is the past gerund followed by the auxiliary verb expresses persistence of an activity and strengthens the construction's progressive meaning. The action is taking place uninterruptedly at present or past time. For example:

*Otam Andijondan guruch olib keldilar.* My father brought rice from Andijan.

*Nega (nimaga) menga kulib qarayapsan?* Why are you (looking and) laughing at me?

**4- Mashq.** O'qing. Tarjima qiling. Yangi so'zlar bilan gap tuzing.

Sabzi

Tanishtirib o'zini

Sabzi boshlar so'zini:

- Qizil, sariq rangdamiz,

**Yengilmaymiz** jangda biz.

Yer ostida uyimiz,

**Doim fikr-u o'yimiz:**

Odamlarga berib **naf,**

**Qozonda tursak qaynab.**

T. Yo'ldosh

*Yengilmoq* – to be defeated

*Fikr-u o'y* – thought

*Doim* - always

*Naf* – profit, benefit

*Qozon* – pot

*Turmoq* – to stand, to stay

*Qaynamoq* – to boil

**5- Mashq.** O'qing, tarjima qiling va savollar tuzing:

Bilasizmi?

Agar inson 70 yil yashasa, undan 23 yilini uxlash, 13 yilini gaplashish, 6 yilini ovqatlanish, 1,5 yilini yuvinish uchun **sarf** qilar ekan.

Odam 70 yoshga kirguncha o'rta hisobda 10 ming litr suv, 1000 kg yog', 700 kg non, 2000 kg go'sht, 4000 kg baliq, 5000 kg kartoshka, 4000 ta tuxum, 3000 litr sut, 500 kg qand, 500 kg tuz, 1000 kg meva va sabzavot iste'mol qilar ekan.

**6 - Mashq.** Complete the right column. Answer the question.

Siz nimani yomon ko'rasiz?	
----------------------------	--

For example: *Men raqsga tushishni yomon ko'raman.* – I do not like dancing.

### Eslab qoling! Remember!

*Banka* – jar  
*Dona* – piece  
*Juft* – pair  
*Kilogram* - kilogram  
*Litr* - liter  
*Pachka* – pack  
*Paket* - package  
*Stakan* – glass  
*Qop* – sack  
*Qoshiq* – spoon

**7 - Mashq. A)** Chap tomondagi so'zlarga o'ng tomondagi mos so'zlarni tanlang (tanlamoq= to choose):

Bir qop	non
To'rt dona	uzum
Ikki qoshiq	konfet
O'n besh dona	un
Ikki pachka	suv
Besh banka	makaron
Bir yarim kilo	tuz
Ikki paket	tuxum
Sakkiz litr	shakar
Uch stakan	asal

**B)** Compare. *Qiyoslang* :

Nechta olma kerak? - Menga ikkita olma kerak. vs  
Necha kilo olma kerak? – Menga ikki kilo olma kerak.

**8 - Mashq.** Oqing. Tarjima qiling.

Kecha uyimzga mehmon kelgan edi. Akam ikkalamizni meva-cheva olishga bozorga yubordilar. Akam bilan avval bozorni aylanib narx-navoni **bilib** oldik. Olmalarning 1 kilo narxi 1200 so'mdan 1900 so'mgacha, uzumniki 1700 - 2100 so'mgacha, nokniki 1500 -2000 so'mgacha, shaftoliniki

1600 – 2250 soʻmgacha edi. Anjirni ham olmoqchi boʻldik. Uning 1 kilogram narxi 2300 soʻm edi. Biz 3 kilo olma, ikki kilo shaftoli, qolgan mevalarni 1 kilodan oldik. Ularga **qoʻshib** yana 6 ta **yopgan** non oldik. Uning donasi 1000 soʻmdan ekan. Undan keyin men akam bilan oʻzimizga bittadan muzqaymoq sotib oldik. Shunday qilib, biz muzqaymoqni yeb uyga keldik. Uyimizda onam bizlarni **sabrsizlik** bilan **kutib oʻtirgan** ekanlar.

**9 - Mashq.** Quyidagi jadvalda oziq-ovqatlarni oʻziga xos rastasiga (**rasta** - section) joylashtiring. Ularning narxini yozing. Masalan:

Meva rastasi	Sabzavot rastasi	Goʻsht rastasi	Don mahsulotlari	Sut mahsulotlari
Olma	sabzi	qoʻy goʻshti	makaron	qatiq

### 3. Narx-qiymatni ifodalash. Asking the price

besh yuz soʻm

besh yuz soʻmda

besh yuz soʻmdan

besh yuz soʻmlik

Masalan: *400 soʻmlik daftar 500 soʻmdan sotilishi mumkin.*

Narxi necha soʻm ? (qancha?)	Necha soʻmdan (qanchadan?)	Necha soʻmga olding? (Qanchaga?)	Qanday narsa
---------------------------------	-------------------------------	-------------------------------------	--------------

500 so'm 1000 so'm	500 so'mdan 1200 so'mdan	500 so'mga 1000 so'mga	500 so'mlik qimmat - expensive arzon - cheap
-----------------------	-----------------------------	---------------------------	--

### 3.1. Muomala odobi

Sotuvchi	Xaridor
Marhamat, keling! -Welcome!	Kechirasiz , (baliq) bormi? – Excuse me, do you have (fish)?
Nima xizmat? – How can I help you?	___kg (dona, banka, pachka) bering (bersangiz) – Give me ___kg (piece, can, pack)
Qancha beray? – How much should I give?	Necha pul? = Narxi qancha? – How much?
Xo'p bo'ladi! – Yes, sir (ma'm)	Bo'lmaydi. Juda qimmat. – No. Very expensive.
Mayli - OK	Muncha qimmat! – So expensive!
Bo'lmaydi – Not possible	Arzonroq berasizmi? – Will you give it cheaper?
___ so'm qo'shing. – Add ___sum	Narxini tushurib bering! – Drop the price, please!
Mana, marhamat! – Here you go!	(800) ga berasizmi? – Will you give for (800)?
Jonim bilan – With pleasure	Bo'pti, torting. – Ok, weight it.
Kelib turing – Come again	Rahmat! – Thank you!

**10 - Mashq.** Role play the dialogue/Suhbat.

- A. – Assalomu alaykum. Kechirasiz, non bormi?  
 B. – Ha, bor. Marhamat, keling.  
 A. – Men to'rtta non sotib olmoqchiman. Necha puldan?  
 B. – Donasi bir yarim ming so'mdan turadi.  
 A. – Muncha qimmat? Narxini tushirib berasizmi?  
 B. – Xo'p, mayli. Bir ming ikki yuz ellik so'mdan beraman.  
 A. – Bo'pti, olaman.  
 B. – Mana, marhamat!  
 A. – Rahmat!  
 B. – Kelib turing!

**11 - Mashq.** Make up similar dialogues using the words below:

- sakkizta tuxum

2. yarim kilo pishloq
3. uch kilo tovuq go'shti
4. ikki litr sut

**12 - Mashq.** Sotuvchining savollariga xaridor nima deganini toping. Find the answers to the questions asked by a customer from a sales man.

### Oziq-ovqat do'konida

- X. – \_\_\_\_\_
- S. – Mana bu sariyog' mi? Kilosi 2400 so'm. Qancha **tortib beray?**
- X. – \_\_\_\_\_
- S. – Mana, marhamat. Kassaga 1360 so'm **to'lang.** Yana nima beray?
- X. – \_\_\_\_\_
- S. – Sutning 1 litri 950 so'mdan, makaronning kilosi 1200 so'mdan.
- X. – \_\_\_\_\_
- S. – Jonim bilan. Yana 460 so'm to'laysiz.
- X. – \_\_\_\_\_
- S. – Arzimaydi. Do'konimizga kelib turing!

#### 4. Present Perfect Tense. Tugallangan hozirgi zamon

##### V + gan + personal ending

This form is used to express action happened in the indefinite past with no specific time frame or dates. It is formed by adding to the verb stem the suffix **-GAN**, plus the pronominal type of personal suffixes.

verb	verb stem	perfective suffix	personal ending	Example
Yozmoq	yoz	+gan	+man	I have written
	yoz	+gan	+san/siz	You've written
	yoz	+gan	---	S/He has written
	yoz	+gan	+miz	We have written
	yoz	+gan	+siz	You have written
	yoz	+gan	+lar	They have written

Ishlamoq	ishla	+gan	+man	I have worked
	ishla	+gan	+san/siz	You have worked
	ishla	+gan	----	S/he has worked
	ishla	+gan	+miz	We have worked
	ishla	+gan	+siz	You have worked
	ishla	+gan	+lar	They have worked

For example: *Men xat yozganman.*

*U o'zbek tilini o'rgangan.*

*Biz Samarqandda ishlaganmiz.*

*Eshikni ochgan bola kim?*

If the verb stem ends with **-k** or **-g**, a phonetic assimilation rule changes the suffix into **-KAN**. In the same way, if the verb stem ends with **-q** or **-g'**, the suffix is changed into **-QAN**. For example, with the verb *tegmoq*, 'to touch':

*tekkanman* - I have touched

*tekkansan* - You have touched

*tekkan* - He/she/it has touched

*tekkanmiz* - We have touched

*tekkansiz* - You have touched

*tekkanlar / tekkan* - They have touched

### Interrogative form

Note, that in interrogative sentences for subjects **men** and **biz** the suffix **-mi** is added after personal endings.

Verb	verb stem	perfective suffix	interrogative suffix	personal ending	interrogative suffix
ko'rmoq	ko'r	+gan	--	+man	mi?
	ko'r	+gan	+mi	+san/siz	?
	ko'r	+gan	+mi	----	?
	ko'r	+gan	--	+miz	mi?
	ko'r	+gan	+mi	+siz	?
	ko'r	+gan	+mi	+lar	?



For example: *Samarqanda bo'lganmisiz?*  
*Laylo uy vazifani qilganmi?*

**13 - Mashq.** Fe'llarni tarjima qilib to'g'ri gap tuzing.

1. Men bu kitobni (have read) \_\_\_\_\_
2. Umida ham bu kitobni (have read) \_\_\_\_\_
3. Siz choy ichasizmi? – Rahmat. Biz choy (have drunk) \_\_\_\_\_
4. Karim Buxoroda (have been) \_\_\_\_\_
5. Qayerda (you have studied)? \_\_\_\_\_
6. Bu kinoni qayerda (have you watched)? \_\_\_\_\_
7. Biz, shu bozorga (have come) \_\_\_\_\_

**14 - Mashq.** O'qing, quyidagi ustozlar haqida gapirib bering.

Ibrohim Mo'minovich Mo'minov – faylasuf olim. U 1908-yilda tug'ilgan. 1931-yilda Samarqand pedagogika akademiyasini tamomlagan. Falsafa fanidan juda ko'p kitoblar yozgan. 1970-yilda vafot etgan.

Mukarram Turg'unboyeva – O'zbekiston xalq artisti, raqqosa. 1913-yilda tug'ilgan. U 1957-yilda "Bahor" raqs ansamblini tuzgan. Bir qancha raqslar muallifi. 1978-yilda vafot etgan.

[https://www.youtube.com/watch?v=cdRXCag5\\_Y](https://www.youtube.com/watch?v=cdRXCag5_Y)

Yunus Rajabiy – bastakor, hofiz, O'zbekiston xalq artisti. 1959-yilda maqomchilar ansamblini tuzgan va unga boshchilik qilgan. "O'zbek xalq qo'shiqlari" nomli 5 jildlik kitob yozgan. Juda ko'p musiqali spektakllarga musiqa yozgan. 1976-yilda vafot etgan.

Mashq. Siz qaysi shoir, yozuvchi, bastakor olimlarni bilasiz? Ular haqida gapirib bering.

#### 4.1. O'tgan Zamon (davomi). Forming negative sentences

Verb	Verb stem	Negation suffix	Perfective suffix	Personal suffix
------	-----------	-----------------	-------------------	-----------------

yashamoq	yasha	+ma	+gan	+man
	yasha	+ma	+gan	+san/siz
	yasha	+ma	+gan	----
	yasha	+ma	+gan	+miz
	yasha	+ma	+gan	+siz
	yasha	+ma	+gan	+lar

For example: *Men O'zbekistonda yashmaganman.*

*Men nonushta qilmaganman.*

Other ways of forming negative sentences are by use of **emas** and **yo'q**. The negative may also be formed using the verb stem plus the suffix **-GAN** (which is the past participle), followed by the negative **emas** and the personal suffix. For example:

*kelgan emasman* - I haven't come

*kelgan emassan* - You haven't come

*kelgan emas* - He/she/it hasn't come

*kelgan emasmiz* - We haven't come

*kelgan emassiz* - You haven't come

*kelgan emaslar / emas* - They haven't come

Another and more emphatic negative form is using the past participle, **-GAN +** the possessive personal suffixes, followed by the negative word **yo'q**. That form is more emphatic, as is its positive counterpart, with **bor**. For example:

*kelganim yo'q* - I haven't come

*kelganing yo'q* - You haven't come

*kelgani yo'q* - He/she/it hasn't come

*kelganmiz yo'q* - We haven't come

*kelganingiz yo'q* - You haven't come

*kelganlari yo'q* - They haven't come

**15 - Mashq. A)** Conjugate the following verbs using the negative **emas**, **yo'q** and suffix **-ma**.

**B)** Make up a sentence for each verb.

*O'qimoq, bilmoq, olmoq*

**16 - Mashq.** O'qing, tarjima qiling va savollarga javob bering

1. Qachon tug'ilgansiz?
2. Qayerda tug'ilgansiz?
3. Qayerda o'qigansiz? O'qiysiz?
4. Siz O'zbekistonda o'qiganmisiz?
5. Maktabda ishlaganmisiz?
6. Qayerda ishlagansiz?
7. Uylanganmisiz?
8. Turmushga chiqqanmisiz?
9. O'zbekcha palov yeganmisiz?

**5. Past Perfect Tense (Tugallangan o'tgan zamon).** This form is used when talking about completed action in a distant past, before the recent action took place. It is formed by adding **edi** – use to (that is the past participle), plus the possessive type of personal suffixes. The associated words with that tense are **before – avval, oldin, ilgari**.

Verb	verb stem	perfective suffix	to be	Personal suffix	tarjima
Yemoq	ye	+gan	edi	+m	I had eaten
	ye	+gan	edi	+ng	You had eaten
	ye	+gan	edi	--	S/he had eaten
	ye	+gan	edi	+k	We had eaten
	ye	+gan	edi	+ngiz	You had eaten
